

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

**YULDASHEVA ZUHRA NIZAMITDINOVNA**

**“XOLDORXON” DOSTONIDAGI TAKRORLARNING LINGVOPOETIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of the Abstract of the Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on philology**

**Yuldasheva Zuhra Nizamitdinovna**

“Xoldorxon” dostonidagi takrorlarning lingvopoetik tadqiqi.....3

**Юлдашева Зухра Низамитдиновна**

Лингвопоэтическое исследование повторов в эпосе «Халдархан».....23

**Yuldasheva Zuhra Nizamitdinovna**

Lingupoetic study of repetitions in the story “Kholdarkhan”.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

**YULDASHEVA ZUHRA NIZAMITDINOVNA**

**“XOLDORXON” DOSTONIDAGI TAKRORLARNING LINGVOPOETIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2058 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining (www.tai.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mamatov Abdi Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Karimov Suyun Amirovich**  
filologiya fanlari doktori, professor


**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 21 noyabr soat 14 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisonabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-71-44; faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (     raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 7 noyabr da tarqatildi.  
(2024-yil 7 noyabr dagi 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.H.Hakimov**  
Ilmiy darajalarni beruvchi,  
ilmiy kengash raisi o'rinbosari,  
filologiya fanlari doktori, professor

**A.M.Hasanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, f.f.b.(PhD) f. d, katta ilmiy xodim

**D.S.Xudoyberganova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi f.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tilning tasviriy, badiiy-estetik imkoniyatlari va ularning xalq og‘zaki ijodi namunalariidagi ishtiroki masalasi tadqiqiga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, asrlar davomida xalqning hayot va turmush tajribalari asosida hamda olamni idrok etish ishtiyoqida yaratilgan va muntazam sayqallanib kelgan xalq og‘zaki ijodi asarlari tilini tadqiq qilish orqali milliy tilning taraqqiyot tarzini o‘rganish imkoniyati yanada kengayadi. Shuning uchun ham dostonlardagi badiiy tasvir vositalari ko‘lamini aniqlash, tavsiflash va tasniflash orqali milliy tilning estetik-ekspressiv jihatlarining namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xosliklarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida dostonlar tilining fonetik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlarini hamda dostonlarda qo‘llangan til birliklarining lingvopoetik imkoniyatlarini o‘rganish, dostonlardagi estetik tasvir vositalarini va ekspressivlik ifodalovchi vositalarni aniqlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi kunda xalq dostonlari tilini har tomonlama mukammal tadqiq qilish, ularning lingvistik hamda poetik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, dostonlar tilini fanlararo mushtarak tamoyillar asosida tekshirish, bu borada muayyan nazariy-amaliy qonuniyatlarni belgilash, xulosalarni umumlashtirish tilshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalq yaratgan bebaho ma‘naviy meros hisoblanmish dostonlarni o‘rganish va ularni keng miqyosda ommalashtirish hozirda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas. Xalqning milliy o‘zligini, uning tili va hayot tarzini, ajdodlardan yodgor an‘ana va urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan dostonlar umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi ekanligi va shuning uchun ham uni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish bugungi avlodning muqaddas burchidir. “Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari tobora kengayib, asl san‘at o‘rnini, afsuski, shou-biznes, olomon madaniyati egallab olayotgan bir sharoitda beqiyos ma‘naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san‘atni, xalq ijodiyotining nodir namunalari asrab-avaylash, ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir”<sup>1</sup>. Hozirgi kunda yuz jildlik “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari”ning nashr etilayotgani favqulodda jiddiy hodisalardan biri bo‘lib, u mamlakatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning o‘ziga xos namoyishi hisoblanadi. Shu ma‘noda, dostonlar tilini, xususan, “Xoldorxon” dostonining badiiy til xususiyatlarini dissertatsion planda chuqur o‘rganish ayni faoliyatning ilmiy-nazariy jihatdan barkamol bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, rivojlanish bosqichlarini belgilab berish hamda sohaga oid maqsadli dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san‘ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2023-yil 6-may. <https://baxshimarkaz.uz/>

chiqish uchun asos bo'ladigan 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida", 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi VMQ-304-son "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek tilshunosligida xalq dostonlari tiliga bag'ishlangan muhim dissertatsion tadqiqotlar yaratilgan. Bu borada Sh.Shoabdurahmonov, R.Rasulov, S.Tursunov, Z.Xolmonova, J.Xolmurotova, A.Ishayev, X.Ro'zimboyev, S.Sariyev, A.Rahimov, A.Xoliqov, G.Jumanazarova, D.O'rinboyeva, Q.Olloyorov, D.Ashurov, I.Umarov, A.Eshmurotov<sup>2</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini alohida sanash mumkin. O'zbek tilshunosligida A.Eshmurotov "Xoldorxon" dostonining lug'aviy qatlamlari, vazifaviy-semantik va uslubiy xususiyatlarini aniqlash bo'yicha dissertatsion tadqiqot olib borgan. Lekin doston tilining xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblangan takroriy birliklar tahlili yetarli emas. Dissertatsiyada dostonidagi takrorlar tadqiqiga (unda "tovush takrori faol emas"ligi ta'kidlanib) bor-yo'g'i ikki

---

<sup>2</sup> Шаабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы "Равшан": Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1949. – 19 б.; Rasulov R. Синтаксические связи между словами в дастане "Алпомиш". Автореф. дисс. ... канд. филол. Н аук. – Ташкент, 1975; Tursunov S. Лексические особенности дастана "Алпамыш": Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 19 б.; Холманова З. "Шайбонийхон" достони лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 160 б.; Ишаев А. Дostonлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликда ўрни. – Тошкент, 1971. – Б. 173-179; Рўзимбоев Х.С. Жанубий Хоразм дostonлари тилининг луғавий-маъновий таҳлили ("Шаҳриёр" ва "Маликаи Завриё" дostonлари мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Сариев С.М. Хоразм "Гўрўғли" дostonларининг қўлёзма вариантлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007; Раҳимов А. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 25 б.; Халиков А.А. "Гўрўғлининг туғилиши" достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Жуманазарова Г. "Ширин билан Шакар" дostonининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варианты асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.; *Shu muallif*. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол. фанлари докт. дисс. – Тошкент, 2017. – 268 б.; Ўринбаева Д.Б. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари: Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019; Оллоёров Қ.М. Хоразм дostonлари ономастикаси ("Гўрўғли" ва "Ошиқнома" туркум дostonлари асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа докт. ... (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 46 б.; Умаров И. "Малика айёр" достони лексикаси филол. фан. бўйича фалсафа докт. ... (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – 46 б.; Эшмуратов А. "Холдорхон" дostonининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўғли варианты асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа докт. ... (PhD) дисс. автореф. – Жиззах, 2021. – 49 б.

sahifa o‘rin ajratilgan. Vaholanki, dostonida takrorga asoslangan poetik figuralar anchagina bo‘lib, lingvopoetik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** “Xoldorxon” dostonida qo‘llangan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik takrorlarning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“Xoldorxon” dostonidagi takroriy birliklarni aniqlash va ularning matn tarkibidagi o‘rnini izohlash;

tovush takroriga asoslangan badiiy tasvir vositalarining dostonidagi ko‘rinishlarini aniqlash va ularning fonopoetik imkoniyatlarini yoritish;

doston matnida lingvopoetik ahamiyat kasb etgan morfologik birliklar takrori hamda ularda baxshi estetik niyatining namoyon bo‘lish shakllarini asoslash;

dostonida takror asosida poetik aktuallashgan birliklarni aniqlash hamda shu asosda ijodkorning poetik o‘ziga xosligini, tildan foydalanishdagi mahoratini ochib berish;

dostonida so‘z birikmasi va gap takrori asosida namoyon bo‘lgan poetik figuralarni aniqlash va ularning lingvopoetik xususiyatlarini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kuylagan. “Xoldorxon” dostonining 1981-yildagi nashri (Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif) tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** “Xoldorxon” dostonidagi takroriy birliklarning lingvopoetik xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, distributiv, transformatsion tahlil, lingvistik va lingvopoetik tadqiq usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Xoldorxon” dostonining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarida uchraydigan qator-qator, qavat-qavat, o‘rim-o‘rim, tol-tol, ayri-ayri, savat-savat, gul-gul kabi takroriy birliklar aniqlangan va ularning matnni shakllantirish, ta’sirchanlikni ta’minlash va ohangdoshlikni hosil qilish singari lingvopoetik imkoniyatlari ochib berilgan;

fonetik takrorga asoslangan assonans, alliteratsiya kabi tasviriy vositalarning doston matnidagi o‘rni, matnning intonatsion butunligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fonopoetik vosita ekanligi aniqlangan;

dostonida takror asosida poetik aktuallashgan takrorlanadigan so‘zlar kabi leksik-semantik birliklar aniqlangan hamda shu asosda ijodkorning poetik o‘ziga xosligi, uning tildan foydalanishdagi mahorati asoslangan;

dostonida so‘z turkumlari doirasidagi takroriy birliklar, asos va qo‘shimchalar takrori, bo‘g‘lovchilar takrori izohlangan hamda so‘z birikmasi va gap takrori asosida hosil qilingan poetik figuralar aniqlanib, ularning ritmik-intonatsion

imkoniyatlari, dostonning morfologik va sintaktik butunligini ta'minlash bilan bog'liq lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan, shuningdek, ularda baxshi estetik niyatining takroriy birliklar asosida namoyon bo'lish shakllari dalillangan.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari.** "Xoldorxon" dostonidagi takroriy birliklar aniqlangan, tasnif va tavsif qilingan; fonetik takrorga asoslangan assonans, alliteratsiya kabi tasviriy vositalarning doston matnidagi o'rni, matnning intonatsion butunligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fonopoetik vosita ekanligi, morfologik, sintaktik birliklar takrori hamda ularda baxshi estetik niyatining namoyon bo'lish shakllari, poetik aktuallashgan leksik-semantik birliklar hamda ularning tahlili asosida ijodkorning poetik o'ziga xosligi, uning tildan foydalanishdagi mahorati ochib berilgan;

tadqiqot natijalaridan o'zbek tilshunosligida muayyan dostonning fonopoetik, leksik-semantik xususiyatlarini, shuningdek, poetik sintaksis masalalarini tadqiq qilishda keng foydalanish mumkinligi asoslangan. Shuningdek, dostonidagi takroriy birliklarning badiiy til xususiyatlarini tadqiq etish asosida Ergash Jumanbulbul o'g'lining individual poetik mahorati yoritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda tahlil qilingan faktik material va chiqarilgan umumlashmalardan o'zbek folkloridagi qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olinganligi, dostonning lingvopoetik xususiyatlari tahlillarida muhim tadqiqotlarga tayanilganligi, tavsiflash, tasniflash, qiyoslash va lingvopoetik tahlil tamoyillariga asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqotning o'zbek tilshunosligida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar va ilmiy-nazariy manbalar asosida o'rganilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "Xoldorxon" dostonidagi takroriy birliklarning lingvopoetik xususiyatlari" mavzusida yozilgan mazkur tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida badiiy matn hamda xalq dostonlarining tili bilan bog'liq tadqiqotlar yaratishda, shuningdek, lingvopoetikaga aloqador ishlarda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Xoldorxon" dostonidagi takroriy birliklarning lingvopoetik xususiyatlari bilan bog'liq to'plangan materiallar, qo'yilgan masalalarni tadqiq etish natijasida kelingan xulosalar o'zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, "Leksikologiya", "Matn lingvistikasi", "Dialektologiya", "Badiiy matnning lisoniy tahlili" kabi fanlardan yaratiladigan yangi darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi; shuningdek, xalq dostonlari tilining izohli hamda etimologik lug'atlarini tuzish, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida mavzuga aloqador maxsus kurslar, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Xoldorxon" dostonidagi takroriy birliklarning lingvopoetik xususiyatlari tadqiqi natijalari asosida:

doston matnidagi fonetik, morfologik, leksik-semantik va sintaktik takrorlarning badiiy til xususiyatlari ochib berilgan hamda Ergash Jumanbulbul

o'g'lining til birliklaridan foydalanish mahoratiga doir xulosalardan O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT–F1–78 raqamli “Hozirgi globallashuv davrida o'zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (vazifaviy uslublar tahlili asosida)” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining 2024-yil 9-sentyabrdagi 3/1255-2007 sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

2021–2022-yillarda bajarilgan IL-21071156 raqamli “Antropotsentrik tilshunoslik terminlari izohli lug'atini tuzish va nashr qilish” (lug'atning mobil ilovasi va veb-saytini yaratish) mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan. Natijada loyiha zamonaviy o'zbek tilshunosligida yangilanishlar, jumladan, dostonlarda aniqlangan takror asosida poetik aktuallashgan leksik-semantik birliklar hamda shu asosda ijodkorning poetik oziga xosligi, uning tildan foydalanishdagi mahorati kabi lingvopoetikaga oid tushunchalar bilan to'ldirilgan.

“Xoldorxon” dostonining tili, uning o'ziga xosligi, fonetik, leksik-semantik va grammatik birliklar takrori va ularning lingvopoetik tahliliga oid taklif hamda tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Hamma uchun” ko'rsatuvining o'zbek xalq dostonlariga bag'ishlangan sonini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston tarixi” telekanali davlat muassasasining 2024-yil 12-sentyabrdagi 06-28-842 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotdagi ma'naviy-ma'rifiy fikrlar, ilmiy qarashlarga asoslangan xulosalar teleko'rsatuv ssenariysini mazmunan boyitgan va mukammallashtirgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan: 3 ta respublika, 4 ta xalqaro konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 3 tasi respublika hamda 9 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 122 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O'zbek tilshunosligida xalq dostonlari tilining tadqiqi masalalari**” deb nomlangan birinchi bobi ikki bo'limdan iborat. Bobning “**O'zbek**

**tilshunosligida xalq dostonlari tilining o'rganilishi"** deb nomlangan birinchi bo'limida o'zbek tilshunoslarining xalq dostonlari tili bilan bog'liq tadqiqotlariga munosabat bildirilgan.

Xalq og'zaki ijodining noyob namunalarini, xususan, badiiy qimmatini, xalq hayoti, tafakkuri va o'ziga xos urf-odatlarini keng qamrovli aks ettirishi bilan alohida farqlanib turuvchi dostonlar tilini o'rganish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblangan. Ma'lumki, xalq dostonlari folklorshunoslik, adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 40-yillaridan boshlab xalq dostonlariga e'tibor qaratila boshlandi. Sh.Shoadurahmonov "Ravshan" dostoni tilidagi badiiy tasvir vositalariga bag'ishlangan dissertatsiyasi bilan xalq dostonlari tilini qanday o'rganish haqida ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surdi. Shundan keyin bu yo'nalishdagi ishlar jadallashdi va ko'lami muntazam kengayib bordi. R.Rasulov, S.Tursunov, Z.Xolmanova, J.Xolmurotova, X.S.Ro'zimboyev, A.Rahimov, A.Xoliqov, I.Xudoynazarov, G.Jumanazarova, D.Ashurov, A.Eshmuratovlarning tadqiqotlari o'zbek xalq dostonlarining lingvistik, stilistik, lingvostatistik, lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga qaratilganligi bilan e'tiborga molik tadqiqotlar hisoblanadi<sup>3</sup>.

Olib borilgan tadqiqotlarga nazar solinsa, ularning ko'pchiligi dostonlar leksikasi va ularning adabiy tilga munosabatiga bag'ishlanganligi ayon bo'ladi. X.Doniyorov, B.To'ychiboyev, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, X.Bektemirov kabi tilshunoslarning ishlarida dostonlar leksikasi turli aspektlarda tadqiq qilingan. Masalan, X.Doniyorov dostonlar tilining umumiy va hududiy xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratgan va qipchoq guruhiga mansub shevalardagi o'ziga xosliklar masalasiga to'xtalgan<sup>4</sup>. A.Ishayev esa Xorazm vohasi dostonlari tilida uchraydigan qipchoq shevasiga mansub leksik birliklarni tadqiq qilgan<sup>5</sup>. B.To'ychiboyev "Alpomish" dostoni bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan va dostonda qipchoq lahjasining xarakterli xususiyatlari qay darajada aks etganligini o'rgangan<sup>6</sup>. A.Rahimov o'zining dissertatsion tadqiqotida E.Jumanbulbul o'g'lining

<sup>3</sup> Rasulov P. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 23 с.; Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990; Холманова З. «Шайбонийхон» дostonи лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Рўзимбоев Х.С. Жанубий Хоразм дostonлари тилининг луғавий-маъновий таҳлили («Шаҳриёр» ва «Маликаи Завриё» дostonлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002; Халиков А.А. «Тўрўғлининг туғилиши» дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул дostonлари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 96; Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б.76; Ашуров Д.А. «Алпомиш» дostonининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Наманган, 2021. – Б. 26.

<sup>4</sup> Дониёров Х. Кипчоқ шеваларини ўрганишда халқ дostonларининг роли // Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1967.

<sup>5</sup> Ишаев А. Дostonлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликда ўрни. – Тошкент, 1971. – Б. 173-179.

<sup>6</sup> Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – 160 б.

“Xushkeldi” va “Qunduz bilan Yulduz” dostonlarining tilini o‘rgangan. Olim dostonlardan to‘plangan materiallarni qiyosiy-tarixiy va semantik-stilistik aspektda yoritgan<sup>7</sup>. Tadqiqotlar orasida S.Tursunovning “Alpomish dostonining leksik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. U doston tilidagi leksik birliklarni turli leksik-semantik guruhlariga ajratib o‘rgangan. Shuningdek, leksik-grammatik dialektizmlarning muqobili adabiy tilda mavjud yoki mavjud emasligini tahlillar asosida izohlab bergan<sup>8</sup>. N.Mahmudov dostonlar tili haqidagi maqolalarida xalq dostonlari tilini o‘rganmasdan turib, milliy tilning butun go‘zalligini ko‘rish mumkin emasligini ta’kidlaydi: “Hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, “Alpomish” dostoni o‘zbek xalq tilining xira tortmas ko‘zgusi, jonli xalq tilining, xalq donoligining jonli tarixi in’ikosidir”<sup>9</sup>.

Ko‘rinib turganidek, o‘zbek tilshunoslari xalq dostonlari tiliga uzoq yillardan beri e’tibor qaratib keladilar. Ko‘pchilik tadqiqotlar dostonlar tiliga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, leksik-semantik sath bilan chegaralangan. Biroq G.Jumanazarovanning doktorlik dissertatsiyasi bu boradagi keng ko‘lamli ish hisoblanadi. Unda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilidagi so‘zlarning vazifaviy-mazmuniy, etimologik va lingvostatistik xususiyatlari hamda lingvomadaniy birliklarning badiiy-estetik vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, dostonlar tilidagi birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari va badiiy-estetik qimmatini yoritgan<sup>10</sup>.

A.Eshmuratov “Xoldorxon” dostonining uslubiy xususiyatlari bo‘yicha monografik tadqiqot olib borgan. Dissertatsiya “Xoldorxon” dostonining lingvostilistik xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti asosida)” deb nomlanadi. Uning dastlabki bobida dostonning fonetik xususiyatlari yoritilgan. Unda asosiy e’tibor tovushlarning almashishi, orttirilishi, tushishi va boshqa fonetik hodisalarning lisoniy xususiyatlariga qaratilgan. Tovushlar alternatsiyasi, ya’ni fonetik almashinuvi doston tilidagi asosiy fonetik xususiyatlardan biri ekanligi sanab o‘tilgan. Mazkur tadqiqotda faol qo‘llangan tasviriy vositalar ham tahlilga tortilgan. “Xoldorxon” dostonining tili va uslubini belgilovchi lingvistik omillar sifatida xalq maqollari va o‘xshatish, metafora, epitet kabi ko‘chimlar hamda stilistik formula, takror kabi poetik figuralarga, ayrim subyektiv baho shakllariga murojaat qilingan<sup>11</sup>. Aytish mumkinki, dostondagi takroriy birliklar tahlili yetarli emas. Dissertatsiyada dostondagi takrorlar tadqiqiga (unda “tovush takrori faol emas”ligi ta’kidlanib) bor-yo‘g‘i ikki yarim sahifa o‘rin berilgan.

Mazkur tadqiqotlarning barchasi o‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda e’tibor qaratilayotgan zamonaviy yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilmoqda. Xususan,

<sup>7</sup> Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002.

<sup>8</sup> Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.

<sup>9</sup> Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2012. – Б.89.

<sup>10</sup> Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопозтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б.76.

<sup>11</sup> Эшмуратов А. “Холдорхон” дostonининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўғли варианты асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Жиззах, 2021. – Б.141.

badiiy matn tiliga e'tibor, lingvopoetika sohasining taraqqiy etishi dostonlar tiliga e'tiborning ortishiga olib kelmoqda.

Bobning **“Xoldorxon” dostonining tili va badiiy matnda takrorning o‘rni** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida doston tilining o‘ziga xos xususiyatlari va takrorning lingvopoetik imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Xoldorxon” dostoni voqealar silsilasining betakrorligi bilangina emas, lisoniy tashakkulining o‘ziga xosligi bilan ham alohida ajralib turadi. Doston xalq tilining butun jozibasini o‘zida aks ettirgan badiiy til bobida yuksak asar hisoblanadi. Ayniqsa, dostonda qo‘llangan takroriy shakllarning badiiy-estetik ko‘rinishlari diqqatga sazovordir.

Ma’lumki, takror matn yoki matn parchasining bir butun holda saqlanishini ta’minlovchi o‘ziga xos yopiq tizimdir. Bu tizimning ishlash mexanizmi ham g‘oyat o‘ziga xosdir. Dastlab, matn shakllanishida ishlatilgan bu tizim ijro jarayonini qulaylashtirishga ham ko‘maklashadi va shu tariqa ikkinchi vazifasini ado etadi. Tinglovchi tomonidan matnning qulay anglanishini ta’minlash barobarida uzoq muddat xotirada saqlash imkoniyatini yaratishi bilan yana bir muhim vazifasini bajaradi. Bu mo‘jizakor vosita doston matnlarida ba’zan tovush, qo‘shimcha, o‘zak, ba’zan so‘z va so‘z shakllarining qaytarilishi shaklida qarshimizga chiqadi. Ba’zan bu vositalar birin-ketin, muntazam tarzda, ba’zan aralash, ba’zan ters holda namoyon bo‘ladi. Ba’zan, hatto yashirin holda kelganda ham o‘zining mavjudligini ta’kidlab turadi. Bu lisoniy birliklarning takroridan hosil bo‘ladigan ohangdorlik esa asarning intonatsion tugalligini ham ta’minlaydi.

Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta’sirchanligi ortadi.

Baxshi va boshqa ijrochilarning mahoratiga bog‘liq holda takrorning yana ko‘plab turlarini kuzatishimiz mumkin. “Xoldorxon” dostonida qo‘llangan badiiy takror shakllari ham o‘ziga xosligi bilan diqqatga loyiqdir.

*Hayda, hayda, hayda deb,  
Qrim yurti qayda deb,  
Borayotir to‘rtovi  
Maqsadimiz to‘yda deb. (12 bet)*

Keltirilgan parchada *haydamoq* fe‘lining buyruq shakli va *deb* ravishdoshining uch martadan takrorlanganligini hamda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasining ikki farqli so‘zda qaytalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Harholda oshkora [eksplitsit] ifodalangan birliklar shu tarzda qanoat qilishimizga asos bo‘ladi. Biroq til birliklarining ham dualistik nazariyaga muvofiq bir-biridan farqli, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil jihatlari mavjudligini yoddan chiqarmasligimiz kerak. Mazkur matnning yashirin [implitsit] jihati ham mavjudki, bu mavjudlikni aynan takror asosida qayta tiklashimiz mumkin. Nigohimizdan “yashirib qo‘yilgan” bu birliklarni quyidagi shaklda qayta tiklaymiz:

*[To‘rtovi] hayda, hayda, hayda deb, [borayotir].  
[To‘rtovi] Qrim yurti qayda deb, [borayotir].  
[To‘rtovi] maqsadimiz to‘yda deb, [borayotir]. (12 bet)*

Dostonlar tilidagi takroriy birliklar matnni shakllantiruvchi vosita sifatida alohida badiiy-estetik mohiyat kasb etadi. Doston badiiy asar hisoblanganligi uchun ham badiiyatga daxldor barcha unsurlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi. Takrorlanuvchi har bitta birlik badiiy asarda bir necha vazifani bajarishga moslashgan. Estetik vazifa bu vazifalarning eng asosiylaridan biri hisoblanadi.

“Xoldorxon” dostonida takrorlanuvchi birliklarning o'rinlashuviga ko'ra quyidagi turlari ko'p uchraydi:

**Simmetrik takrorlar.** Bunda bir tovush, qo'shimcha, so'z yoki so'z birikmasi jumla yoki satrning bir xil o'rnida takrorlanadi. Asosan, boshda, o'rtada va satr so'ngida kelib ohang butunligini ta'minlaydi:

*Men bu so'zdan g'am yemasman,  
Men seni odam demasman,  
Men ham sendan kam emasman,  
Savash etsang, kel-kel beri. (100-bet)*

Mazkur parchada olmosh, kelishik, bo'lishsizlik va shaxs-son qo'shimchasi o'rinlashuviga ko'ra simmetrik takrorlangan. Olmosh satr boshida kelgani uchun anaforik takroni, shaxs-son affiksi satr so'ngida kelgani uchun epiforik takroni, kelishik va bo'lishsizlik qo'shimchalari inforik takroni hosil qiladi. Quyidagi misolda simmetrik takrorning biroz farqli ko'rinishi berilgan:

*Urush bo'ldi, olam to'ldi shovqumga,  
Urushda kim qarar, yoronlar, kimga,  
Ot chopib aralash bo'ldi ko'p lashkar,  
Qirg'in tushdi odamzodday mardumga. (120-bet)*

Misoldan ko'rinib turganidek, *urush* so'zi ikkinchi satrda o'rin-payt qo'shimchasini olib takrorlangan. Shunday bo'lsa-da, bu umumiy vaziyatni o'zgartirmaydi. Chunki mazkur anaforik takrorda ohang so'z o'zagi orqali aniq seziladi va affiks ohang uyg'unligiga halaqit qilmaydi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) esa go'yo har satrni “qulflab” intonatsion muvozanatni mustahkamlashga xizmat qilgan. Bundan tashqari -di zamon affiksi va *bo'lmoq* fe'lining yaqin o'tgan zamon shakli (*bo'ldi*) inforik takror sifatida ichki ohang uyg'unligini barqarorlashtirib turishga xizmat qilgan. *Kim* va *kimga* so'roq olmoshlari ham matnning takrorlanuvchi unsurlari sifatida intonatsion butunlikning tugal bo'lishiga xizmat qilgan. Shunga o'xshash holatni quyidagi parchada ham ko'rishimiz mumkin:

*Qorong'ulik bo'p qoldi,  
Chirog' o'chganday bo'ldi.  
Terak butaganday bo'ldi,  
Laylak yutaganday bo'ldi,  
Dala o'taganday bo'ldi,*

*Lashkardan o'lgan murdasin  
Molni mataganday bo'ldi.  
Botir yurur chaypashib,  
Xe bo'g'ishma bo'ldi-da,  
Xo'p kekirdak siypashib. (287-bet)*

Takrori bu shaklda simmetrik joylashtirishdan asosiy maqsad, albatta, matnning intonatsion muvozanatini, butunligini, uyg'unligini saqlash va ohang oqishini bir xilda davom etishini ta'minlashdan iboratdir. Shu bilan birga, simmetrik takrori matn arxitekturasining fundamental unsurlaridan biri sifatida tushunish kerak.

**Aralash takrorlar** atamasi nomidan ham ko'rinib turganidek, simmetrik bo'lmagan, ko'proq aralash holda, nomuntazam tarzda takrorlanuvchi birliklarga nisbatan ishlatiladi. Dostonning nasriy parchalarida bu holat yanada aniq ko'rinadi: *Ol-ol, beklar, olganniki, beklarim, Qaytmay qilich solganniki, beklarim, Jallod bo'lib jondan keching, botirlar, Davlat xizmat qilganniki, beklarim. Lekin bek Sardorning ko'pdir odami, Odami ko'plikdan sira yo'q g'ami, Mirza Askar ozlik qilib turibdi, Oz ham bo'lsa uning ko'pdir anjomi.*

"Xoldorxon" dostonining matni takror va u bilan bog'liq turli fikr-mulohazalarni yuritish imkonini berishi jihatidan ham boy dostonlarimizdan sanaladi. Masalan, A.Eshmuratov o'zining "Xoldorxon" dostonining lingvostilistik xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul asarlari misolida)<sup>12</sup> nomli dissertatsiyasida takror haqida to'xtalib, dostonida tovushlar takrori faol emasligini aytadi. Tadqiqotchi "o" va "m" tovushlarining faol takroriga misollarni keltiradi. Shuningdek, anafirik, epifirik takrorlar haqida to'xtalib, statistik ma'lumotlar berish bilan cheklanadi. Aslida "Xoldorxon" dostonida fonetik takrorning betakror ko'rinishlari mavjud va ular dostonning musiqiyligini ta'minlashga xizmat qilgan. Takror haqida gap ketganda, u yoki bu birlikning necha marta takrorlanganini qayd etishning o'zi yetarli emas. Hozirgi kunda windows dasturining qidiruv xizmati mavjud va u istalgan so'zning necha marta va qay tarzda takrorlanganini soniyalar ichida aniqlab beradi.

Umuman, lingvopoetik tahlilda barcha hodisalar kabi takrorning ham o'z mantig'i, qo'llanish tarzi hamda poetik imkoniyatlari ochib berilishi zarur. Unli tovushlarning zich takroridan assonans hosil bo'lishi barchaga ma'lum. Lekin nega aynan assonans hosil qilinyapti? Nega aynan matnning shu o'rnida assonansdan foydalanilyapti? Assonansga ehtiyojni yuzaga keltirayotgan matn mazmuni nimalardan iborat va shu kabi xususlar o'rganilishi lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Kattaqo'rg'on dostonchilik maktabining iste'dodli vakili Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Xoldorxon" dostoni tilida milliy tilning lug'at boyligi, estetik imkoniyatlari yorqin namoyon bo'lgan. Doston tilida takrorga asoslangan behad go'zal lisoniy ifodalar mavjud va ularni tadqiq qilish dissertatsiyamizning asosiy vazifasi bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Xoldorxon**" dostonidagi fonetik va leksik-semantik takrorlar badiiyati" deb ataladi. Bobning "**Fonetik takrorlarning lingvopoetik xususiyatlari**" deb nomlangan ilk bo'limida undoshlar asosida yuzaga chiqadigan alliteratsiya, unlilar takrori asosida yuzaga chiqadigan assonans hamda o'rniga ko'ra epifora, anafora, infora kabi fonetik figuralar haqida so'z yuritiladi.

---

<sup>12</sup> Эшмуратов А. "Холдорхон" дostonининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўғли варианты асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа докт. ... (PhD) дисс. автореф. – Жиззах, 2021. – 49 б.

Dostonda fonetik takrorning turli ko‘rinishlari uchraydi. Ular ichida undoshlar asosida yuzaga chiqadigan alliteratsiya, unlilar takrori asosida yuzaga chiqadigan assonans hamda o‘rniga ko‘ra anafora, epifora, infora kabi fonetik figuralar alohida e‘tiborni tortadi. Masalan, quyidagi misolda undoshlar takrori matnning ta‘sirchanligiga xizmat qilgan:

<i>Mening bilan barobar kel,</i>	<i>Yerning yuzin qon etkali,</i>
<i>Maydonga kel, maydonga kel,</i>	<i>Sizlarni qiron etkali,</i>
<i>Menday ulug‘ arslonga kel!</i>	<i>Maydonga kel, maydonga kel,</i>
<i>Men keldim maydon etkali,</i>	<i>Menday nomdor arslonga kel!</i>

(266-bet)

Keltirilgan parchada satr boshida *m* undoshining takrorlanishi alliteratsiyani yuzaga keltirgan. *Men* va *maydon* so‘zlari boshidagi **m** fonemasi umumiy ohangdorlikka xizmat qilishi bilan birga qahramonning o‘ziga ishonchi va g‘ururini ta‘kidlashga ham xizmat qilgan. Maydonga chorlayotgan kishining nutqida *mening*, *menday*, *men* kabi asosdosh so‘zlarning takrorlanishi uning kuchli shaxs ekanligiga ishora qiladi va mazkur nutq egosentrik – “men” markazli nutq hisoblanadi. Bunday nutq egalarining nutqida odatda “men” ta‘kidi kuchli ifodalanadi. Bundan anglashiladiki, mazkur nutq parchasida faqat alliteratsiya emas, balki qahramonning psixologik kodi ham yashirin ifodalangan.

*Ot boradi arillab,*  
*Otgan o‘qday sharillab.*  
*Ot alqimi tong shamoli,*  
*Mis karnayday zarillab. (82-bet)*

Parchada otning yeldek uchib borayotgani tasvirlangan. Buni *arillab*, *otgan o‘qday sharillab*, *mis karnayday zarillab* kabi so‘z va o‘xshatish qurilmalar orqali anglashimiz mumkin. Shu o‘rinda otning tez ketib borayotganligi otilgan o‘qqa qiyoslanadi va *ot* so‘zi *otmoq* so‘zi bilan aloqalantiriladi. Otning shiddati o‘qning shiddati bilan hamohang ekanligi *ot* va *otgan* so‘zlarini parallel qo‘llash orqali behad go‘zal shaklda namoyon bo‘lgan. Otning tezligini ifodalashda tovushlarning bir xilligi ham alohida ta‘kid olgan. Bunda *o*, *a*, *i* unlilari faol takrorlanib ot dupurini aks ettirishga xizmat qilgan. Unlilar va undoshlar ham doston matnida o‘ziga xos musiqiy koloritni hosil qilish bilan birga matnda tasvirlangan holatni ta‘sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Badiiy nutqda **geminatsiya** deb ataluvchi fonopoetik vosita ham alohida qimmatga ega. Bu hodisa haqida A.G‘ulomov<sup>13</sup>, A.Haydarov<sup>14</sup>, A.Abdullayev<sup>15</sup>, M.Yo‘ldoshev<sup>16</sup> va boshqa tilshunoslarning asarlarida keng ma‘lumotlar berilgan. Mazkur tilshunoslar badiiy nutqdagi har qanday qo‘shundoshlilik emas, balki

<sup>13</sup> Gulomov A. va boshq. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент, 1977. – Б. 366.

<sup>14</sup> Хайдаров А.А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б.10.

<sup>15</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 3-5.

<sup>16</sup> Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.7.

muayyan maqsad bilan bir undoshni ikki marta ishlatish usulinigina geminatsiya deyish zarurligini aytishadi va bu fikrni biz ham ma'qullaymiz. Dostonda badiiy-estetik maqsadga xizmat qilgan geminatsiyaga misollar ko'p kuzatiladi. Masalan, quyidagi parchalarda *haqqi* so'zi geminatsiyaga misol bo'ladi. Jonli nutqda *q* undoshini mazkur so'zda qavatlantirish ko'p kuzatiladi. Dostonda ham *haqqi* tarzidagi geminatsiyali ifoda ko'p qo'llangan. Bu esa *q* undoshini qavatlash orqali ta'kidni kuchaytirishga xizmat qiladi. Misollar:

*Ko'p fikrlarga bordi, axiri o'ziga-o'zi aytdi: "Endi mening haqqim, shuncha lashkarim, bahodirlarim, polvonlarim – hammasi nobud bo'lib, mening Borsa kelmas eliga borishim qanday?"; Hasan ko'lbar elanayotir: – O', Avazjon, bolam, agar sening navbating bo'lsa, enangning haqqi men boray, meni yubor, sen o'tir, tomosha ko'r, hali yosh bolasan, uning tengi emassan; O', yigitlar, o', yoron, qarindosh, endi Sardorning o'lmagi durust edi. Endigi asl haqqi shul!; Yovmitda, Takada qancha odam bo'lsa: amaldor, navkar – bul ikki jamoa bo'lsa-da, haqqi bor.*

Xulosa o'rnida aytishimiz lozimki, dostonlar matnining fonetik strukturasi takrorlar muhim vazifani bajaradi. Xususan, assonans, alliteratsiya va geminatsiyaga asoslangan takrorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobning **"Leksik birliklar asosida namoyon bo'ladigan takrorlarning lingvopoetik xususiyatlari"** deb nomlangan ikkinchi bo'limida leksik-semantik takroriy shakllarning badiiy-estetik ko'rinishlari haqida so'z yuritiladi.

"Xoldorxon" dostonida qo'llangan leksik-semantik takroriy shakllarning badiiy-estetik ko'rinishlari ham diqqatga sazovordir. Takroriy birliklar mohiyati bilan bog'liq tadqiqotlarda **epanalepsis** deb ataluvchi hodisa haqida so'z yuritiladi. Bir so'zning ketma-ket juft holda qo'llanishi mazkur termin ostida o'rganiladi. Bunday takror badiiy matnda ekspressivlikni ta'minlashga xizmat qiladi<sup>17</sup>. "Xoldorxon" dostonida ham epanalepsis hodisasi ko'p kuzatiladi. Mazkur hodisa dostonning evfonik tizimini shakllantiradi va nutq tovushlari takroriga asoslangan xushohanglikni ham yuzaga chiqaradi. Shuningdek, tinglovchiga doston tilining musiqiylikidan zavq olish imkoniyatini yaratadi: *Xoldorxon lashkarini dasta-dasta, to'da-to'da, to'p-to'p, bayroq-bayroq, tug'-tug' qilib jo'nataberdi. Lashkarning oldi kelib, Go'ro'g'libek lashkarining oldini olib tushaberdi. (...) Xoldorxonning jonsiparlari, nonxo'rlari saf tortib, safda turib, ichi qizib, Go'ro'g'libekning qo'shiniga ko'zi ola-bo'la berdi, o'g'ri-o'g'ri qaray berdi. (...) Ana odamlar giras-giras, to'da-to'da, bo'lak-bo'lak, aymoq-aymoq, el-el, o'rda-o'rda kelayotir, kelgani joy olib sarositasini olayotir, qancha bakovullar, arboblar, oqsoqol bari joy boplab kelgan-ketganni o'xshatib, bajarib yuribdi.*

Keltirilgan parchadagi epanalepsis hosil qiluvchi takroriy juft so'zlar asosida lashkarning beaded ko'pligi, shu bois ularni guruhlab, har bir guruhni alohida bayroq va tug' bilan ta'minlash amaliyotining bir necha bor takrorlanganligiga ishora qilinadi. Natijada juda ta'sirchan, xushohang jumla hosil bo'lgan.

Dostonda leksik-semantik takrorlardan ham asar badiiyatini oshirishda keng foydalanilgan. Bunday birliklarni qo'llashda ham usta baxshi o'z mahoratini

<sup>17</sup> Йўлдошев М., Ядгоров Қ. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007.

namoyish qilgan. Shulardan biri takrorlanuvchi birliklarning halqa shaklida tizilishidir. Bunda birinchi satrda qo‘llangan dominant so‘z ikkinchi satrda ham aynan yoki uning sinonimi orqali takrorlanadi. Shu tarzda birinchi va ikkinchi satr bir butunlik kasb etadi. Dostonda jang epizodi tasvirida ana shunday o‘ziga xos **halqa** shaklida takrorlanuvchi birliklar ko‘p kuzatiladi:

*Dovshi* baland chiqar Yovmit bolasin, *Savash* degan botirniki, yoronlar,  
*Qizilboshning dovshin* bosib ketadi. *Qo‘rqoq urush* bo‘lmay qochib ketadi.  
*Shunday bo‘lib savash* bo‘ldi *Qrimda*, *O‘choqning boshida ko‘r-da*  
*qo‘rqoqni*,  
*Har yerda botirlar savash* etadi. *Qo‘rqoq* botirlikni uyda etadi(124-bet).

Keltirilgan parchada *dovush*, *savash* va *qo‘rqoq* so‘zlari halqa shaklida takror qo‘llangan. *Savash* so‘zi o‘g‘uz lahjasiga oid so‘z bo‘lgani bois qipchoq va qorluq lahjasida so‘zlashuvchilarga ham tushunarli bo‘lishi uchun mazkur so‘zning sinonimi (*urush*)ni ham qo‘llab boradi.

Badiiy nutqda antitezadan alohida tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. Qiyos orqali aytilayotgan fikr kengroq anglanadi. Dostonda fe‘l-atvor, tushuncha va qahramon antiteza asosida o‘zaro qiyoslanadi. “Xoldorxon” dostonida yaxshi va yomon inson, yaxshilik va yomonlik, yaxshi nom qoldirish va yomon nom qoldirish kabi tushunchalar bir nutq parchasida qiyoslanadi:

